

“10 TA NEGR BOLASI” ASARIDA AGATA KRISTINING MAXSUS STILISTIK YONDASHUVI

Roziqova Nigora

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti

"Xorijiy til va adabiyoti" - yoʻnalishi 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17281690>

Annotatsiya. Mazkur maqolada Agata Kristining “10 ta negr bolasi” romanida yozuvchining individual uslubi ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Asarning syujet tuzilishi, ramziy elementlardan foydalanilishi, qahramonlarning psixologik tasviri va kutilmagan yakun bilan yakunlanishi yozuvchining badiiy mahoratini koʻrsatib beradi. Roman til va uslub jihatidan sodda, loʻnda hamda dinamik boʻlib, oʻquvchini kuchli hayajon va qiziqishda ushlab turadi.

Shuningdek, qoʻrquv va sir saqlash texnikasining ustalik bilan qoʻllanilishi asar dramtizmini yanada oshiradi. Qahramonlarning oʻtmishda qilgan gunohlari va ularning jazoga mahkumligi roman falsafiy va axloqiy mazmunini belgilaydi. Shunday qilib, “10 ta negr bolasi” romani Agata Kristining individual yozuvchilik uslubini yorqin namoyon etadi va detektiv adabiyot rivojida muhim oʻrin egallaydi.

Kalit soʻzlar: Agata Kristi, “10 ta negr bolasi”, individual uslub, syujet tuzilishi, psixologik tasvir, ramziy elementlar, qoʻrquv va sir, adolat va jazo, dramtizm.

AGATHA CHRISTIE'S SPECIAL STYLISTIC APPROACH IN "TEN NEGRO CHILDREN"

Abstract. This article scientifically analyzes the individual style of the writer in Agatha Christie's novel "10 little soldiers". The plot structure of the work, the use of symbolic elements, the psychological portrayal of the characters, and the unexpected ending demonstrate the writer's artistic skill. The novel is simple, concise, and dynamic in terms of language and style, keeping the reader in a state of intense excitement and interest. Also, the skillful use of the techniques of fear and secrecy further enhances the drama of the work. The sins committed by the characters in the past and their condemnation to punishment determine the philosophical and moral content of the novel. Thus, the novel "10 little soldiers" vividly demonstrates Agatha Christie's individual writing style and occupies an important place in the development of detective literature.

Keywords: Agatha Christie, "10 little soldiers", individual style, plot structure, psychological portrayal, symbolic elements, fear and mystery, justice and punishment, drama.

ОСОБЕННЫЙ СТИЛИСТИЧЕСКИЙ ПОДХОД АГАТЫ КРИСТИН В «10 НЕГРЯНЫХ ДЕТЕХ»

Аннотация. В статье научно анализируется индивидуальный стиль писательницы в романе Агаты Кристи «10 негрных детей». Сюжетная структура произведения, использование символики, психологическая прорисовка характеров персонажей и неожиданная развязка демонстрируют художественное мастерство писательницы. Роман отличается простотой, лаконичностью и динамичностью языка и стиля, поддерживая читателя в состоянии острого волнения и интереса. Кроме того, умелое использование приёмов страха и таинственности усиливает драматизм произведения. Грехи, совершённые героями в прошлом, и их наказание определяют философско-нравственное содержание романа. Таким образом, роман «10 негрных детей» ярко демонстрирует индивидуальный стиль Агаты Кристи и занимает важное место в развитии детективной литературы.

Ключевые слова: *Агата Кристи, «10 негритят», индивидуальный стиль, структура сюжета, психологическое изображение, символические элементы, страх и тайна, справедливость и наказание, драма.*

Kirish

Agata Kristi XX asr ingliz adabiyotining eng mashhur yozuvchilaridan biri bo'lib, u o'zining detektiv janrdagi asarlari orqali jahon adabiyotida o'chmas iz qoldirgan. Uning "10 ta negr bolasi" ("And Then There Were None") romani yozuvchining individual uslubi va ijodiy mahoratini yorqin namoyon etuvchi asarlardan biri hisoblanadi. Mazkur roman o'zining syujet murakkabligi, obrazlar psixologiyasining chuqur yoritilishi hamda kutilmagan yakun bilan ajralib turadi. Aynan shu jihatlar Agata Kristining badiiy mahorati va yozuvchilik uslubini ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini beradi. Yozuvchining individual uslubi uning ijodiy merosida o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Kristining asarlarida qisqa, lo'nda jumlar, dialoglarning dinamikligi va voqealarning ketma-ketlik asosida ochilishi kuzatiladi. "10 ta negr bolasi" romanida ham yozuvchi murakkab sarguzasht elementlarini psixologik tasvir bilan uyg'unlashtirib, o'quvchini doimiy ravishda hayajon va qiziqishda ushlab turadi. Shu bilan birga, asarda yashirin ramziylik, insoniy qo'rquv va ijtimoiy tanqid unsurlari ham mavjud bo'lib, ular Kristining ijodiy uslubini yanada boyitadi. Mazkur mavzuni ilmiy o'rganish Kristining individual uslubini nafaqat detektiv janr doirasida, balki kengroq badiiy tafakkur rivoji kontekstida tahlil qilish imkonini beradi. Chunki yozuvchining "10 ta negr bolasi" romani nafaqat kriminal voqealarni yoritadi, balki inson ruhiyati, adolat, ayb va jazoga oid falsafiy masalalarni ham ko'taradi. Shu jihatdan, Agata Kristining uslubini tahlil qilish, uning detektiv adabiyotga qo'shgan hissasini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi

Asosiy qism

Agata Kristi butun dunyoga mashhur detektiv yozuvchi sifatida tanilgan bo'lib, uning ijodi XX asr adabiyoti tarixida alohida ahamiyatga ega. Adibning "10 ta negr bolasi" romani uning eng ko'p o'qilgan va eng murakkab syujetli asarlaridan biri sifatida qadrlanadi. Bu roman 1939-yilda ilk bor chop etilgan va qisqa vaqt ichida keng kitobxonlar ommasiga yoyilgan. Asar o'zining murakkab qurilgan syujeti, psixologik tasvirlari hamda sarguzasht va detektiv elementlarning uyg'unligi bilan ajralib turadi. Kristining boshqa romanlaridan farqli ravishda, unda mashhur qahramonlar – Ercyl Puaro yoki Miss Marpl ishtirok etmaydi. Bu jihat yozuvchining ijodiy tajribasi va yangi izlanishlarga intilganidan dalolat beradi. Roman voqealari yopiq makonda – orolda kechadi va bu joy tanlovi yozuvchining individual uslubining bir qirrasini ko'rsatadi. Voqealarning rivoji qat'iy mantiqiy ketma-ketlik asosida berilib, har bir qahramonning aybi va jazosi asta-sekin ochiladi. Shu sababli asar nafaqat badiiy qiymatga, balki ijtimoiy va axloqiy mazmunga ham ega.

"10 ta negr bolasi" romanining syujeti Agata Kristining eng yirik adabiy yutuqlaridan biridir. Unda o'n nafar shaxsning noma'lum shaxs tomonidan orolga taklif qilinishi va keyinchalik ularning birma-bir sirli tarzda halok bo'lishi tasvirlanadi. Bu syujet o'zining ixchamligi va qat'iy mantiqiyliги bilan ajralib turadi. Kristi voqealarni sodda tilda tasvirlagan bo'lsa-da, syujetdagi murakkablik o'quvchini doimiy ravishda o'ylashga majbur qiladi. Syujet qurilishida bolalar she'riga asoslanilgan san'atkorona parallelizm mavjud bo'lib, bu roman atmosferasini kuchaytiradi. Har bir qahramonning o'limi she'rning navbatdagi satriga mos kelishi orqali voqealar o'ziga xos drammatizm kasb etadi. Bunday uslub o'quvchini hayratda qoldirish bilan birga, yozuvchining ijodiy mahoratini ham ko'rsatadi.

Kristining individual uslubi aynan shu qat'iy syujet tuzilishi, ramziy elementlar va kutilmagan yakun bilan belgilanadi. Misol uchun, o'quvchi oxirigacha qotil kimligini aniqlay olmaydi, bu esa detektiv adabiyotda eng muhim usullardan biridir.

Roman qahramonlari son jihatdan ko'p bo'lsa-da, Kristi ularning barchasini individual xarakterga ega qilib yaratgan. Har bir obraz o'zining o'tgan hayoti, qilgan jinoyati va shaxsiy xakteri bilan bir-biridan farqlanadi. Masalan, sudya Uorgryev obrazida adolat va jazoga bo'lgan agressiv munosabat ko'rsatilgan bo'lsa, general Makarturda esa o'tgan xotiralar va aybdan qutula olmaslik motivlari tasvirlanadi. Kristining individual uslubi shundaki, u qahramonlarning psixologiyasini batafsil ochib beradi, ularni oddiy jinoyatchi emas, balki ichki iztirob va pushaymonlik ichida yashovchi inson sifatida ko'rsatadi. Dialoglar, monologlar va tafsilotlarga e'tibor bu tasvirni kuchaytiradi. Shuningdek, har bir obrazning o'limi ularning qilgan gunohiga ramziy mos keladi. Psixologik tahlil yozuvchining uslubida asosiy o'rin tutib, o'quvchini voqealardan ko'ra obrazlarning ruhiy kechinmalariga ko'proq e'tibor qaratishga undaydi.

Agata Kristining tili oddiy, lo'nda va tushunarli bo'lib, shu bilan birga chuqur ma'noga ega. U murakkab so'zlardan ko'ra sodda jumlarlar orqali kuchli dramatik effekt yaratishga erishadi. "10 ta negr bolasi" romanida ham jumlarlar qisqa, tez o'qiladigan va dinamik bo'lib, voqealar tez rivojlanadi. Dialoglar o'quvchini syujet ichiga chuqurroq olib kiradi, qahramonlarning ichki dunyosini ochib beradi. Kristining individual uslubi shundaki, u har bir detalga e'tibor beradi: qahramonlarning yuz ifodasi, tana harakati, ob-havo holati yoki makon tasvirlari asar ruhiyatini yanada kuchaytiradi. Masalan, orolning go'yoki ajratilgan, tashqi dunyodan uzilgan makon sifatida tasvirlanishi o'quvchini klaustrofobik muhitga olib kiradi. Bu til va uslub vositalari yozuvchining ijodiy mahoratini belgilovchi muhim unsurlar hisoblanadi.

Roman syujetida bolalar she'ri markaziy ramziy element sifatida xizmat qiladi. Har bir qahramonning o'limi she'rning navbatdagi satri bilan bog'liq bo'lishi voqealarga ramziy ma'no beradi. Bu uslub nafaqat syujetni murakkablashtiradi, balki asarda umumiy falsafiy mazmunni ham kuchaytiradi. Orolning yopiq makon sifatida tanlanishi ham ramziy xarakter kasb etadi – u qotilliklar sodir bo'ladigan izolyatsiya qilingan joy bo'lib, insonning taqdiridan qochib qutula olmasligini anglatadi. Kristi metaforalarni sodda, ammo ta'sirchan tarzda ishlatadi. Masalan, qorong'ilik, shamol va to'lqinlar tasviri qo'rquv va noaniqlikni kuchaytiradi. Shu tarzda ramz va metaforalar yozuvchining individual uslubida muhim o'rin tutadi va roman voqealarini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Kristining asarlarida doimiy qo'rquv, xavotir va sirli voqealar tasviri muhim o'rin tutadi. "10 ta negr bolasi" romanida ham har bir qahramonning keyingi qurbon bo'lish ehtimoli o'quvchini hayajonda ushlab turadi. Yozuvchi bu holatni vaqt va makon tasvirlari, qahramonlarning psixologik iztiroblari orqali berib boradi. O'quvchi ham qahramonlar bilan birga xavotir va qo'rquvni boshdan kechiradi. Kristining individual uslubi shundaki, u sir saqlash texnikasidan ustalik bilan foydalanadi: qotilning kimligi oxirigacha sir bo'lib qoladi. Bu usul nafaqat o'quvchini hayratda qoldiradi, balki asarni qayta-qayta o'qishga undaydi. Misol uchun, sudya Uorgryevning qotil ekanligi faqat romanning yakunida ochiladi va bu kutilmagan burilish asarning dramatzimini yanada kuchaytiradi. Roman o'zining falsafiy mazmuni bilan ham qimmatlidir. Asarda asosiy g'oya – inson qilgan gunohi uchun jazoga mahkumligi masalasi yotadi. Har bir qahramon o'tmishda jinoyat qilgan, biroq u qonuniy jazodan qutulib qolgan.

Sudya Uorgryev esa o'zini "adolat timsoli" sifatida ko'rib, ularni o'lim jazosi orqali jazolaydi.

Kristining individual uslubi shundaki, u detektiv syujet orqali axloqiy-falsafiy muammolarni ko‘taradi. Bu jihat asarni oddiy sarguzasht emas, balki inson ruhiyatiga oid chuqur asarga aylantiradi. Misol uchun, Vera obrazida pushaymonlik va qo‘rquvning birlashtirilishi uning psixologik qulashiga olib keladi. Shu tarzda, adolat va jazo mavzusi Kristining yozuvchilik uslubining asosiy falsafiy qirralaridan biri sifatida ko‘zga tashlanadi.

Agata Kristining individual uslubi detektiv janrni yangi bosqichga olib chiqqan. “10 ta negr bolasi” romanida yozuvchi ramziy elementlar, psixologik tahlil, qat’iy syujet tuzilishi va kutilmagan yakun orqali o‘z uslubini namoyon etadi. Uning asarlarida inson ruhiyatining yashirin qirralari, adolat va jazo masalalari, qo‘rquv va sirli muhit chuqur ifodalanadi. Kristining uslubi sodda tilda yozilgan bo‘lsa-da, falsafiy mazmuni bilan kuchli ta’sir ko‘rsatadi. U o‘zining adabiy merosi orqali detektiv adabiyotning nafaqat ingliz, balki jahon miqyosida rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. “10 ta negr bolasi” romani bu merosning eng yorqin namunasi bo‘lib, yozuvchining ijodiy uslubini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Muhokama

Agata Kristining “10 ta negr bolasi” romani uning individual yozuvchilik uslubini tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi. Roman nafaqat detektiv janrning yuksak namunasi, balki psixologik va falsafiy jihatdan ham chuqur asar sifatida ajralib turadi. Syujet tuzilishi qat’iy mantiq asosida shakllangan bo‘lib, har bir qahramonning o‘limi bolalar she’riga bog‘langanligi yozuvchining uslubidagi ramziy tafakkurni ko‘rsatadi. Bu jihat roman atmosferasini yanada kuchaytirib, o‘quvchini doimiy hayajon va qiziqishda ushlab turadi. Kristining individual uslubi qahramonlarning psixologiyasini tasvirlashda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Obrazlar ichki iztirob, qo‘rquv va pushaymonlik bilan gavdalanitirilgan, bu esa romanga faqat detektivlik emas, balki psixologik roman xususiyatini ham beradi.

Yana bir muhim jihat – yozuvchining qo‘rquv va sir saqlash texnikasidan foydalanishidir.

Voqealar rivoji davomida o‘quvchi qotil kimligini aniqlashga intiladi, biroq yakunda kutilmagan burilish yuz beradi. Sudya Uorgryevning qotil sifatida fosh etilishi nafaqat syujetga dramatism bag‘ishlaydi, balki adolat va jazo mavzusini chuqurroq ochadi. Shu tariqa, roman o‘zida kriminal elementlar bilan bir qatorda falsafiy va axloqiy masalalarni ham mujassamlashtiradi. Muhokama davomida shuni ta’kidlash kerakki, Kristining individual uslubi uning tilida ham namoyon bo‘ladi: qisqa, sodda, ammo kuchli dramatik ta’sir ko‘rsatadigan jumlar, dinamik dialoglar va voqealarning tezkor rivoji uning ijodiy yondashuvini belgilaydi.

Natija

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Agata Kristining “10 ta negr bolasi” romani yozuvchining individual uslubini to‘liq ochib beruvchi asarlardan biridir. Kristi syujet qurilishi, ramziy elementlardan foydalanishi, qahramonlarning psixologik tahlili va kutilmagan yakun yaratish mahorati orqali o‘z uslubini namoyon qiladi. Roman detektiv adabiyotning rivojlanishida yangi bosqich bo‘lib, unda adolat, jazo va inson ruhiyatiga oid falsafiy masalalar ham ko‘tariladi.

Orolning yopiq makon sifatida tasvirlanishi, bolalar she’riga asoslangan ramziy tuzilma va psixologik tasvirlarning ustalik bilan uyg‘unlashtirilishi yozuvchining ijodiy mahoratini yanada yuksak darajada ko‘rsatadi.

Natijada, Agata Kristining individual uslubi nafaqat detektiv janr doirasida, balki keng adabiy tafakkur rivojida ham alohida o‘rin egallaydi. “10 ta negr bolasi” romanining ilmiy tahlili yozuvchining badiiy mahoratini chuqurroq anglashga, uning detektiv adabiyotga qo‘shgan ulkan hissasini qadrlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mazkur asar o‘quvchini insoniy qadriyatlar, adolat va axloqiy masalalar ustida o‘ylashga undaydi.

Xulosa

Agata Kristining “10 ta negr bolasi” romani yozuvchining individual uslubini o‘rganishda juda muhim badiiy manba sifatida qadrlanadi. Asar o‘zining qat’iy syujet tuzilishi, ramziy elementlarga boyligi, psixologik tahlillari va kutilmagan yakuni bilan ajralib turadi. Kristi syujetni bolalar she’riga uyg‘unlashtirishi orqali voqealarga chuqur ramziy ma’no yuklaydi va o‘quvchini asar davomida kuchli hayajon va qiziqishda ushlab turadi. Qahramonlarning psixologik holati, ularning o‘tmishda qilgan gunohlari va bu gunohlar uchun jazoga duchor bo‘lishi yozuvchining falsafiy qarashlarini aks ettiradi. Roman til va uslub jihatidan ham sodda, lo‘nda va dinamik bo‘lib, bu yozuvchining keng kitobxonlar ommasi bilan bevosita muloqot o‘rnatish maqsadiga xizmat qiladi. Kristining qo‘rquv va sir saqlash texnikasidan mahorat bilan foydalanishi asarga drammatizm bag‘ishlaydi va uni nafaqat detektiv janrning yuksak namunasi, balki chuqur axloqiy va falsafiy mazmun kasb etuvchi asarga aylantiradi. Shu jihatdan, “10 ta negr bolasi” romani Agata Kristining individual yozuvchilik uslubini yorqin namoyon etadi va uning detektiv adabiyotga qo‘shgan ulkan hissasini yaqqol ko‘rsatadi. Mazkur asar nafaqat adabiy merosning muhim qismi, balki inson ruhiyatini, adolat va jazoning abadiy muammolarini badiiy ifodalashda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Christie, A. (2003). *And Then There Were None*. London: HarperCollins Publishers.
2. Barnard, R. (1980). *A Talent to Deceive: An Appreciation of Agatha Christie*. London: Collins.
3. Gill, G. (1990). *Agatha Christie: The Woman and Her Mysteries*. New York: Carroll & Graf.
4. Knight, S. (2004). *Crime Fiction, 1800–2000: Detection, Death, Diversity*. New York: Palgrave Macmillan.
5. Osborne, C. (2006). *The Life and Crimes of Agatha Christie*. London: Harper.
6. Tursunova, O. T. (2019). *Detektiv adabiyotda syujet qurilishi va uslubiy xususiyatlar*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
7. Karimov, A. (2021). “Agata Kristi asarlarining o‘zbek kitobxonlari orasidagi o‘rni”. *O‘zbek tili va adabiyoti jurnali*, №3, 112–119.